



**THE PROBLEM OF SEMANTIC TAGGING OF PHILOSOPHICAL TERMS IN
THE UZBEK LANGUAGE IN THE CORPUS**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10111275>

Karimov Kamoldin Nasriddinovich

*Andijan State Institute of Foreign Languages, Department of Theoretical Aspects of
English*

king230680@gmail.com

ABSTRACT

This article provides recommendations on the structure of the database of philosophical terms for the national corpus of the Uzbek language and the educational corpus of the Uzbek language. Opinions have been put forward about the need for a dictionary, semantic annotation and semantic tags in the creation of a database of philosophical terms.

Keywords

computational linguistics, philosophical terms, language corpus, linguistic support

**O'ZBEK TILIDAGI FALSAFIY TERMINLARNI KORPUSDA SEMANTIK
TEGLASH MUAMMOSI**

Karimov Kamoldin Nasriddinovich

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasini

king230680@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbek tilining milliy korpusiva O'zbek tili ta'limiy korpusi uchun falsafiy terminlar ma'lumotlar bazasining tuzilishi to'g'risida tavsilar berilgan. Falsafiy terminlar ma'lumotlar bazasini yaratishda so'zlik, semantik izoh va semantik teglar talab etilishi haqida fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar

kompyuter lingvistikasi, falsafiy terminlar, til korpusi, lingvistik ta'minot

O'zbek kompyuter lingvistikasi borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbek tili milliy korpusining ilk kurtagi - ta'limiy korpus ishga tushirildi.

O'zbek tilshunosligida kompyuter va korpus lingvistikasi, matnga leksikografik ishlov berish masalasi borasida M.Mahmudov, M.Ayimbetov,


S.Karimov, G.Jumanazarova, A.Babanarov, D.O'rinboyeva, A.Norov, S.Muhammedov, N.Abdurahmonovalarning tadqiqotlari mavjud.

Harakat fe'llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta'min yaratish, o'zbek-ingliz tili mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti, o'zbek tili mualliflik korpusini tuzish tamoyillari, o'zbek tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning lingvistik modullari, til korpusi lingvistik bazasini tuzish tamoyillari, o'zbek tili atov birliklarini semantik teglashning lingvistik asoslari, o'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari, o'zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish monografik planda o'rganilgan. Shu bilan birga, o'zbek-ingliz parallel korpusi tuzish muammolari, o'zbek tilidagi otlarni avtomatik tahlil qilish, so'z yasashining formal modellari, korpus lingvistikasida polisemiya haqida qator maqolalar nashr etilgan. O'zbek tilida avtomatik morfologik tahlilning ayrim masalalari yoritilgan ishlar mavjud. Sh.Hamroyeva o'zbek tili morfoanalizatori va uning lingvistik ta'minotini yaratish masalasini, Sh.Gulyamova esa o'zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslarini tadqiq etgan.

O'zbek tili falsafiy terminlarni semantik teglash va undagi muammolar, leksikografik mahsulotlarni tanlash masalalariga to'xtalamiz.

Falsafiy terminlarni "O'zbek tili izohli lug'ati" (5 jildli)dan ajratib olib, ularni korpusda semantik teglashdagi muammo va yechimlarni aniqlashni maqsad qilib belgiladik.

Ma'lumotlar omborini tuzishda dastlab uning strukturasi, tarkibi aniqlanishi lozim. O'zbek tili ta'limiy korpusi uchun falsafiy terminlar ma'lumotlar bazasining tuzilishi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:



O'zbek tili milliy korpusida falsafiy terminlar ma'lumotlar bazasi so'zligi o'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli) asosida shakllantiriladi.

O'zbek tili milliy korpusida falsafiy terminlar ma'lumotlar bazasining leksikografik ta'minoti ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni kiritish uchun asos bo'ladi.

O'zbek tili milliy korpusida falsafiy terminlar ma'lumotlar bazasining lingvistik ta'minoti ma'lumotlar omborida so'zlarning izohini keltirish bo'yicha qoidalar to'plamini tashkil qiladi.

O'zbek tili falsafiy terminlar ma'lumotlar omboriga quyidagi ko'rinishda kiritilishi mumkin:

No	Falsafiy in	Maxsus eta	Semantik h	Izoh
1	MATERIALI	turdosh ot	shaxs oti	MATERIALIST 1 <i>fls.</i> Materializm tarafdori, rializm yo'lidan boruvchi kishi. <i>Har qancha rialist bo'lsam ham, ilhom holatining sehrli ekaniga gim keladi.</i> U. Normatov, Talant tarbiyasi.
2	QONUN	turdosh ot	narsa nomi	QONUN I [<i>a.</i> - tartib, qoida, ko'rsatma; <i>iq;</i> kodeks; usul, rasm] 1 <i>fls.</i> Ob'yektiv borlikda hodisalar o'r-tasida kishi ongidan va ixtiyoridan qari hamisha mavjud bo'lgan muhim, zaruriy, aror bog'lanish, munosabat. <i>Ijtimoiy taraqqiyot nlari. Tabiat qonunlari. Dialektika qonunlari. kur qonunlari. Ziddiyatlarning birligi va kurashi agi qonun. Energiyaning saqlanish qonuni. Ha, alla, ta'sir va aks ta'sir qonuni, to'g'ri, xuddi ng o'zi.</i> S. Karomatov, Oltin qum. <i>...metateza ni til taraqqiyotining yaqin davrlar ichida paydo an fonetik hodisasi bo'lmay, balki juda qadimgi adir. "O'TA".</i>

Leksik-semantik teglar taksonomiya, mereologiya, topologiya, kauzatsiya, baho guruhlari bo'yicha aniqlanadi.

Falsafiy terminlar ma'lumotlar bazasini yaratishda so'zlik, semantik izoh va semantik teglar talab etiladi.

O'TILda berilgan falsafiy terminlarga e'tibor qaratsak:

NOMINALIZM [*lot.* nomina - ismlar, nomlar] O'rta asr falsafasida olamda faqat yakka narsalar, predmetlar mavjud, umumiy tushunchalar esa narsalarning nomlaridagina iborat deb hisoblaydigan oqim, yo'nalish.

ONTOLOGIYA [*yun.* on, ontos - borliq + logos - fan, ta'limot] Falsafaning borliq, uning tamoyillari, asoslari, tuzilishi va qonuniyatlari haqidagi bo'limi. *Ontologiya masalalari Sharqda, ayniqsa, bizning yurtimizda "Avesto" zamonlaridan boshlab falsafiy qarashlarning tarkibiy qismiga aylangan. "Fan va turmush".*

STOITSIZM [*yun.* Stoia (Stoya) - stoiklar maktabi asoschisi Zenon birinchi marta nutq so'zlagan peshayvon nomidan] Yunon falsafasida miloddan avvalgi 2-3-asrlarda yuzaga kelgan, inson (dono kishi) ehtiros va hoyu-havaslardan xoli bo'lib, aql-idrokka bo'ysunib yashamog'i kerak, deb hisoblagan falsafiy oqim.

Geraklit g'oyalari ta'sirida stoiklar boshlang'ich olovning faol rolini, uning hamma narsaning yaratuvchisi ekanligini qayd qilganlar, lekin ular keyinchalik havo, suv, tuproqning rolini ham e'tirof etganlar. "Falsafa".

SXOLASTIKA [yun. Scholastikos – maktabga oid; ilmiy; bilimli] 1.Diniy dunyoqarashni nazariy asoslashga intilgan, o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada taraqqiy etgan diniy falsafa. *Sxolastika antik falsafadan, xususan, prokl ta'limotidan ko'p bahramand bo'lgan.* "Falsafa". 2 ko'chma Hayotdan ajralib qolgan yuzaki bilim, behuda, quruq safsata; aqidaparastlik.

Ko'rinyaptiki, lug'atdagi falsafiy sohaga oid terminlar izohida maxsus ko'rsatma, havola va pometalar mavjud emas. Shu sababli axborot ma'lumotlar bazasida qo'lda ishlov berilishi kerak. Ma'lumotlar omborida ushbu terminlarning semantik teglanishi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

No	Falsafiy termin	Pometa	Semantik teg	Izoh
1	NOMINALIZM	Falsafiy alish, oqim	Faoliyat	O'rta asr falsafasida olamda faqat yakka alar, predmetlar mavjud, umumiy tushunchalar narsalarning nomlaridagina iborat deb playdigan oqim, yo'nalish.
2	ONTOLOGIYA	Falsafa mi	Narsa	Falsafaning borliq, uning tamoyillari, asoslari, ishi va qonuniyatlari haqidagi bo'limi.
3	POZITIVIZM	Falsafiy alish, oqim	Faoliyat	Barcha chinakam (pozitiv) bilimlar, biror faning o'z ustidan hukmronligiga muhtoj nagan maxsus fanlarning birgalikdagi, umumiy asidir, deb hisoblovchi falsafiy yo'nalish.
4	STOITSIZM	Falsafiy alish, oqim	Faoliyat	Yunon falsafasida miloddan avvalgi 2-3-rda yuzaga kelgan, inson (dono kishi) ehtiros va t-havaslardan xoli bo'lib, aql-idrokka bo'ysunib amog'i kerak, deb hisoblagan falsafiy oqim.
5	SXOLASTIKA	Diniy fa	Narsa	Diniy dunyoqarashni nazariy asoslashga gan, o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada taraqqiy n diniy falsafa.

O'zbek tili falsafiy terminlarini semantik teglash jarayonida ayrim muammolar kelib chiqishi mumkin. Chunki o'zbek tilidagi ko'p so'zlar (terminlar) polisemantik, omonim va polifunksional bo'lib, bu semantik razmetka tizimida ko'p ma'nolilik, omonimlik va polifunksionallikni bartaraf etish uchun mukammal filtrlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Buni Sh.Gulyamova ko'p ma'noli, omonim va polifunksional so'zlarni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqqan tavsiyasi asosida semantik teglash maqsadga muvofiq. Buning uchun dastavval ularning har biri alohida razmetkalanib, so'zlar orasidagi ko'p ma'nolilik, omonimlik va polifunksionallik filtr bilan va u orqali yaratiladigan lingvistik model orqali



farqlanadi. Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilidagi falsafiy terminlarni korpusda semantik teglash masalasi alohida tadqiqot sifatida keng o'rganilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мухаммедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. – Тошкент, 2006.
2. Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (Содда гаплар мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. афтореф. – Тошкент, 2018.
3. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...диссер. – Қарши, 2018.
4. Абжалова М.А. Ўзбек тилидаги матнларни тахрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар тахрири дастури учун): Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)...диссер. – Фарғона, 2019.
5. Абжалова М. Матнларга автолингвистик ишлов бериш тизимлари // Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang-2018». (Труды конференции) – Ташкент, 2018.
6. Эшмўминов А.А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)...диссер. – Қарши, 2019.
7. Ахмедова Д.Б. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик - семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари: Филол. фан. Бўйича фал. доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2020.
8. Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фал. док-ри. дисс. автореф. – Термиз, 2021.
9. Бегматова Г. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис.автореф. – Термиз, 2021.
10. Karimov R., Mengliev B. Theoretical fundamentals of uzbek-english parallel corpus / Journal of critical reviews. ISSN- 2394-5125. – VOL 7, ISSUE 17, 2020. – P. 73-76.; Karimov R.A., Mengliev B.R. The Role of the Parallel Corpus in Linguistics, the Importance and the Possibilities of Interpretation International Journal of engineering and Advanced Technology (IJEAT). ISSN: 2249 - 8958, Volume-8, Issue-5S3 July 2019.



11. Орхун М. Computational analysis of uzbek nouns / Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang-2018». (Труды конференции) – Ташкент, 2018.